



AKT (R.Zudaybergenov)

AKT (R.Zudaybergenov) -

## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

### “Xalq ta'lifi tizimini boshqarishning axborot tizimi” dasturiy majmuasini bosqichma-bosqich joriy etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini “Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida” 2020-yil 2-martdagি PF-5953-son Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirining 2021-yil 31-martdagи 96-son buyrug'inining ijrosini ta'minlash maqsadida, buyuraman:

1. “Xalq ta'lifi tizimidagi muassasalarни boshqarish bo'yicha yagona elektron dasturiy majmua” (keyingi o'rinnlarda ERP tizimi deb yuritiladi) loyihasi bo'yicha tizimni ishlab chiqish va joriy etish yuzasidan **Ishchi organ etib O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi huzuridagi “Innovatsiya, texnologiya va strategiya markazi” DUK belgilanganligi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.**
2. Vazirning birinchi o'rinnbosari v.v.b (Q.Bekbawliev), tarkibiy bo'limlar, tuman (shahar) xalq ta'lifi bo'limlari boshliqlari, o'z vakolati doirasida, hududlarda ERP tizimini joriy etish bilan bog'liq tashkiliy-huquqiy masalalarga shaxsan mas'ul ekanligi belgilansin.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan “ERP tizimini Xalq ta'lifi tizimiga joriy etishning tashkiliy sxemasi” **ilovaga muvofiq** rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.
4. Tuman (shahar) xalq ta'lifi bo'limi mudirlari va xalq ta'lifi tizimidagi umumta'lim maktablari direktorlariga ushbu buyruqning ilovasiga muvofiq belgilangan tartib asosida ERP tizimiga ma'lumotlar bazasini o'z vaqtida va to'g'ri shakllantirish bo'yicha alohida mas'ulyat yuklatilsin.
5. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish va rivojlantirish bo'limi (**R.Xudaybergenov**) va umumiylar orta talim muassasalarini faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi (**M.Asemetdinov**) kiritgan taqdimnomasiga asosan ERP tizimini joriy etishda sustkashlikka va sansolarlikka yo'l qo'ygan xodimlarga nisbatan o'rnatilgan tartibda intizomiy choralar ko'riliishi yoki rag'batlantirish bo'yicha vazirlik rahbariyatiga taklif kiritib borsin.

## 6. AKT bo'limi (R.Xudaybergenov)ga:

- foydalanuvchilar rollari tasdiqlangandan so'ng, bir hafta muddatda, ERP tizimi foydalanuvchilari ro'yxatini shakllantirish, tizimda avtorizatsiyadan o'tkazish;
- foydalanuvchilar uchun, ularning tizimda amalga oshiradigan funksiyalaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan yo'riqnomu, qo'llanma va boshqa infografikalarni (video lavha, taqdimot) yetkazish;
- ERP tizimiga kiritiladigan ma'lumotlarni to'liq va to'g'rilingini doimiy tahlil qilib borish va rahbariyatga tahliliy ma'lumot kiritib borish;
- doimiy tarzda ERP tizimi axborot xavfsizligini ta'minlash, texnik qo'llab quvvatlash va takomillashtirib borish.

7. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinnbosari v.v.b Q.Bekbawliev va, tegishlilgi boyicha, Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish bo'limi boshlig'i R.Xudaybergenov hamda umumiylar ta'limga muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi boshlig'i M.Asemetdinovlar zimmalariga yuklatilsin.

Vazir


R.Reimov

KO'SHIRMESI DURIS

Nukus sh.,

2021-yil 05 aprel

91-son

X/g  D. Aitjanov

### ERP tizimini hamda xalq ta'lif tizimiga joriy etishning tashkiliy sxemasi

Bosqichlar	Mas'ullar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
<b>1-bosqich</b>	ITSM XTV	<ol style="list-style-type: none"> <li>ERP tizimini xalq ta'lif tizimiga joriy etish bo'yicha ishchi guruhini shakillantirish;</li> <li>ERP tizimi foydalanuvchilarini trening qilish va amaliy o'quv mashg'ulotlari o'tkazish;</li> <li>Foydalanuvchilarni avtorizatsiyadan o'tkazish, rollarni belgilash;</li> </ol>	Aprel
<b>2-bosqich</b>	ITSM  Hududiy boshqarma va bo'limmalar, umumta'lif muktoblari	<ol style="list-style-type: none"> <li>Ma'lumotlar bazasini shakillantirish (o'quvchi, xodimlar, maktab va tashlikot pasport ma'lumotlari);</li> <li>O'quvchilar boshqaruvi (sinifdan-sinifga, maktabdan-maktabga harakati jaryonini analga oshirish;</li> <li>O'qituvchi va xodimlar boshqaruvi jarayonini amalga oshirish (shtat jadvalari, ishga qabul qilish, kadrlar harakati va boshqolar);</li> <li>O'quv jarayonini boshqarish (sinf parametrlari, o'quv rejalari, o'quv saatlari va boshqalar);</li> <li>Ish haqini boshqarish hujjatarni shakillantirish.</li> </ol>	Aprel-avgust
<b>3-bosqich</b>	ITSM XTV	<ol style="list-style-type: none"> <li>Shakillantirilgan ma'lumotlarni to'g'ri va to'liqligini tahlil qilish;</li> <li>Hisobot shakillari va hujjat almashinuvlarini elektronlashtirish;</li> <li>ERP tizimini tashqi va ichki axborot tizimlari bilan ma'lumotlar almashinuvini yo'lg'a qo'yish (integratsiya);</li> <li>Tizimni yo'nalishlar bo'yicha muvofiqlashtirish.</li> </ol>	Aprel-avgust
<b>4-bosqich</b>	ITSM	<ol style="list-style-type: none"> <li>Tizim xavfsizligini ta'minlash va texnik qo'llab-quvvatlash;</li> <li>ERP tizimini qo'shimcha va o'zgartirishlar asosida takomillashtirib borish;</li> <li>ERP tizimi arxitekturasidan kelib chiqib, elektron davlat xizmatlari ko'rsatish bo'yicha takliflar va reglamentlar ishlab chiqish va joriy etish.</li> </ol>	Dömiy ravishda